



POSSIBILITIES AND PROSPECTS OF USING WATER RESOURCES OF JIZZAKH REGION

Nodira Kholmuradova

Master Student

Jizzakh State Pedagogical University

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh region, climate, surface, natural geographical location, river waters, source, course, upstream, downstream.

Abstract: In this article, the possibilities and prospects of using water resources of Jizzakh region at the present time are studied and analyzed.

Received:

Accepted:

Published:

JIZZAX VILOYATI SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Nodira Xolmuradova

Magistrant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, iqlim, yer yuzasi, tabiiy geografik o'rni, daryo suvlari, manbai, mansabi, yuqori oqimi, quyi oqimi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, hozirgi davrda Jizzax viloyati suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari o'rganilgan va tahlil qilingan.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Нодира Холмурадова

магистрант

Джизакский государственный педагогический университет

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизакская область, климат, поверхность, природно-географическое положение, речные воды, исток, русло, верховья, низовья.

Аннотация: В данной статье изучены и проанализированы возможности и перспективы использования водных ресурсов Джизакской области в настоящее время.

KIRISH

Respublika iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining salmog`i katta o`ringa ega hisoblanadi. Qishloq xo`jaligining asosini esa yer va suv resurslari tashkil qiladi. Lekin, so`ngi yillarda respublikamizda suv resurslari tanqisligi ko`p kuzatilmoxda. Respublikamizda suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni istiqbollarini Jizzax viloyati misolida o`rganib, tahlil qilib chiqilmoqda.

ASOSIY QISM

Jizzax viloyati ichki suvlarining shakllanishiga joyning iqlimi, yer yuzasi va tabiiy geografik o`rni katta ta`sir ko`rsatadi. Shu sababdan, mintaqa yer yuzasi va gidrologik xususiyatlarini inobatga olib uni ikki hududga ajratish mumkin. Birinchi hudud tog`li mintaqalarni yani, daryo suvlarini hosil qiluvchi manbalar kiradi. Bu yerda qorlarning, muzlarning erishidan va yog`inlarning ko`pligi tufayli daryolar hamda bir qancha soyalar hosil bo`lishini kuzatish mumkin. Ikkinci hudud tekislik mintaqalari yani, suv sarflanadigan mansabi hisoblanadi. Tog`larda hosil bo`lgan suv resurslari tekislik tomon harakatlanib bug`lanishga, ekinzorlarni sug`orishga, boshqa ehtiyojlarga va yer ostiga shimaladi.

Jizzax viloyati hududining janubiy-g`arbiy qismi baland tog`lardan iborat bo`lganligi boisi suv resurslariga ancha boy. Aynan, ana shu hududlarda mintaqadagi eng yirik suv manbalarini joylashgan.

Jizzax viloyati turli xil hidrografik sharoitga ega. Viloyat daryolari asosan Turkiston tizmasining tarmoqlari bo`lgan Zomin, Chumqor, Molguzar va Nurota tog`laridan boshlanadi. Ushbu daryolar tog`larning baland qismlaridan qorlar erishidan hosil bo`lib, tog` yonbag`irlaridan kichik o`zanlar hosil qilib oqadi. Viloyatning eng yirik daryosi - Sangzor Chumqor tog`ining shimoliy yonbag`ri va Molguzar tog`larining janubiy yonbag`irlaridagi suv yig`ib oladi. Daryo yuqori oqimida Guralash, quyi oqimida Qli deb ataladi. Guralash daryo Turkiston tizmasining shimoliy yonbag`rida (Guralash dovonи hududida) 3400 m balandlikdan pastga oqib tushadigan bir qancha buloqlarning qo`shilishidan boshlanadi. Kichikshak qishlog`ida Jontik irmog`i bilan qo`shilishdan oldin Guralash deb ataladi. Daryo dastlab shimoli-sharqiyo yo`nalishga ega bo`lib, uni tezda shimoli-g`arbgan o`zgartiradi. Guralash sohillaridagi joylarda archa o`rmonlari qalin o`sadi. Daryoga 80 ga yaqin soy va jilg`alar quyiladi: Xo`jasoy, Boyqo`ng`ursoy, Ko`kjar, Oqqo`rg`on, Tangataptisoy, Sutariksoy, Baxmalsoy, Nauka va boshqalar. Bu soyalar alohida-alohida bo`lib, Sangzorga yetib bormasligi mumkin. Go`ralashsoy yuqori qismida sut emuzuvchilardan irbis (Ishinin, Salixov 1963-yil), Menzbir sug`iri, kiyik, ba`zan Tojikiston tomondan yovvoyi Tojik qo`yi keladi. Yozda esa, pastdan ayiq, bo`ri va boshqalar ko`tarilib boradi. Qush turlaridan bolta yutar, Himoloy ukkilari, tosh yungich, burgut va boshqalar uchraydi.

Molguzar tog`larining janubiy yonbag`ridan boshlanuvchi bir necha soyalar qisqa va tez qurib qoluvchi hisoblanadi. Zomin va Chumqortog` tog`larining shimoliy yonbag`irlaridan

boshlanuvchi soylar Molguzar va Nurota tog`laridan boshlanadigan soylarga nisbatan uzun va sersuv bo`ladi. Zomin va Chumqortog` tog`laridan boshlanuvchi daryolar dengiz sathidan 2800-3300 m, Molguzar va Nurota tog`laridan boshlanuvchi daryolar 1500-2200 m balandlikdan boshlanadi.

Viloyatning yer usti suvlari A.F.Slyadneva, K.G.G`aniyeva (1965), X.T.To`laganov (1971), A.Saidov, O.Hazratqulov (1974), N.B.Gorelkin, A.M.Nikitin (1976), A.Rafiqov (1976) kabi olimlar tomonidan yoritilib berilgan.

Viloyatdagi daryo va soylarning suvlari yilning turli davrlarida turlicha oqimga ega bo`ladi. Molguzar tizmasining janubiy yonbag`ridan oqib tushuvchi Kattaqorashaqshaq, Shaybeksoy kabi soylar Sangzorga kelib qo`shiladi.

Zominsuv daryosi Zomin tog`larining yuqori qismidan boshlanuvchi Qashqasuv, Ko`lsuv, Qizilmazor soylarining qo`shilishidan hosil bo`ladi. Yuqori oqimida u Yettikechuv, Duoba qishlog`i yaqinida Sanganaksoy, Zomin shaharchasi yuqori qismidan boshlab Zominsuv deb ataladi.

Quyiroqda Zomin tog`larida hosil bo`luvchi O`riklisoy, Usmonsov, Galdravtsov va boshqalar ham Zominsuv daryosiga kelib quyiladi. Ushbu soylar oqib o`tgan joylarda aholining dam olib hordiq chiqarishi uchun bir qancha dam olish maskanlari tashkil etilgan.

Hududning g`arbida joylashgan Sangzor daryosi va sharqida joylashgan Zominsuv daryolarining oralig`ida Molguzar tizmasining shimoliy yonbag`irlarida bir qancha soylar hosil bo`ladi. Achchisoy, Pshog`orsoy, Toyilonsov, Rovotsov, Ardashshonsov kabi soylar oqadi. Ularning suv sarfi umumiy holda $0,17 \text{ m}^3/\text{sek}$ dan $0,60 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha o`zgaradi.

Hududdagi ba`zi soylarning oylik o`rtacha suv sarfi (m^3 hisobida)

Soy nomi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	yilli k
Achchisoy	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07	0,07
Pshog`or	0,16	0,13	0,12	0,13	0,13	0,14	0,13	0,13	0,12	0,14	0,12	0,12	0,13
Rovotsov	0,3	0,37	0,49	0,72	0,75	0,68	0,55	0,56	0,50	0,37	0,36	0,36	0,50
Sayxonsony	0,14	0,11	0,18	0,24	0,25	0,14	0,13	0,14	0,16	0,13	0,17	0,16	0,16

Bahor oylarida soylarning suvlari ko`payadi. Yilning boshqa davrlari asosan yer osti suvlardan to`yinadi. Oqimlarining juda kamligi bilan harakterlanadi. O`rtacha yillik oqim modeli hududning mutlaq balandligi, joyning orografik va iqlimiylariga bog`liq. Rayonning oqim modeli tog` oldi tekislik qismidan janubga, o`rtacha balandlikdagi suv yig`ish havzalariga tomon ko`tarilib boradi. Eng yuqori oqim modeli Molguzar tizmasining yuqori tog`li qismida 3,3 l/sek dan 11,7 l/sek gacha, o`rta balandlikdagi tog`li qismida 2,1 l/sek dan 4,8 l/sek gacha

o`zgaradi. Tizmaning pastki qismi va tog` oldi tekisligi 0,02 l/sek dan 0,8 l/sek gacha yuzalama oqimlar hosil qiladi.

XULOSA

Xulosa shuki, Jizzax viloyati ichki suvlarining shakllanishi sabablarini aniqlash, mavjud suv resurslaridan tejamkor, oqilona va samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Shu sababdan mintaqqa suvlarini hosil bo`lishi, uning miqdori va sodir bo`layotgan gidrologik jarayonlarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Hozirda Sangzor vodiysi landshaftlaridagi antropogen o`zgarishlar turli xil ko`rinishdagi landshaft-ekologik muommalarining vujudga kelishiga sabab bo`lmoqda. Ayniqsa, vodiyda yuzlama va chiziqli eroziya hodisalari yaqqol ko`zga tashlanadi. Yuzlama eroziya jarayoni daryo va soy suvlarini ta`sirida Turkiston va Molguzar tog` yonbag'irlarida keng tarqalgan bo`lib, uning oqibatida tog` yonbag'iridagi jinslar yuvilib, pastga tushgan. Buning natijasida g`ovak jinslardan tashkil topgan adirlarda jarlanish vujudga kelgan va qishloq xo`jalik yerlardan samarali foydalanishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shunday qilib, tabiiy-antropogen landshaftlarni va ularning elementlari o`rtasidagi o`zaro aloqalarni saqlash, muhofaza qilish cheklangan holda ekstensiv foydalanish bilan bog`liq. Vodiy landshaftlari inson tomonidan qanchalik o`zgartirilgan bo`lmasin, ularni tabiiy-antropogen qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Shu sababli ulardan foydalanishda tabiiy geografik qonuniyatlarga amal qilish va yaxshilashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda qo`llash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO”YHATI

1. Saidov A. Tog` soylari-sug`orish manbai. Toshkent., «Fan», 1974 y
2. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Природные условия и ресурсы Джизакской области. «O`zbekiston», 1978 y
3. Alibekov L.A. – Landshaftlarni muhofaza qilish. –T., «Fan», 1985 y
4. Hakimov Q.M., G`o`dalov M.R. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax, «Sangzor» 2006 y
5. G`o`dalov M.R., Yaxshiboyeva F. Suv resurslaridan rasional foydalanish (Zomin tumani misolida). –T., 2010 y
6. G`o`dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish. Muammo va yechimlar. Monografiya. «Ziyo nashr-matbaa»2021 y
7. Gudalov M.R., Janizakov I.S., Janizaqova G.M., Ways to develop Ecotourism in The Molguzar Mountains. The American Journal of applied Science. 2020, 11/10.
8. Janizakova G., Ravshanov R. Water Resources Of Molguzar and Front Plains. International Scientific and Current Research Conferences. Las Vegas. 2020 y, 12/10

9. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
10. Nematov, O. (2018). Historical and religious monument of muhammad sharif (Mevlanagrekushoh). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 448-452.
11. Mirkomil, G., Lapasova, U., & Umurzakova, G. (2020). Territorial Aspects Of The Organization Of Ecotourism Routes In The Turkestan Ridge. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(11), 87-90.
12. GULSHODA, P. Y. (2021, April). ON THE ISSUE OF " LEADING VERB+ SUPPORTING VERB"(IN THE EXAMPLE OF THE AUXILIARY VERB 싶다 [SIPDA]). In *Oriental Conferences* (pp. 164-170).